



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 25-avgust

VII-11-92-11-163-K/25

Farg‘ona tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-dekabrdagi “Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-440-sonli qarori ijrosi bo‘yicha tumanda 2025-yilning yanvar-iyun oylari davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman hokimi X.Inomovning hisoboti to‘g‘risida

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 16-dekabrdagi “Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-440-sonli qaroriga Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, ishga solinmagan imkoniyatlardan tuliq va samarali foydalanish, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilash, aholining munosib turmush darajasi va bandligini ta‘minlash bo‘yicha yangi imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

Bu borada hamda Farg‘ona tumanida ham joriy yilda bir qator chora-tadbirlar belgilanib olindi. Jumladan, 2025-yil yanvar-iyun oylarida **makroiqtisodiy** ko‘rsatkichlar, hususan **sanoat** mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi **845,1 mlrd.so‘mga** yoki **107,2 foizga**, **xizmatlar** hajmi **688,6 mlrd.so‘mga** yoki **112,5 foizga**, **qishloq xo‘jaligi** ishlari hajmi **1792,3 mlrd.so‘mga** yoki **103,4 foizga** **qurilish** ishlari hajmi **223,1 mlrd.so‘mga** yoki **101,3 foizga** bajarishga erishildi.

Davlatimiz rahbarining 2024 yil 23 sentyabrdagi PF-143-sonli Farmoni hamda va shu kundagi PQ-330-sonli qarorlari asosida “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturiga asosan tumanda Kambag‘al oilalar va kambag‘allik darajasini pasaytirish bo‘yicha 2025-yilda **1309 ta** kambag‘al oilalarni kambag‘allikdan chiqarish hamda kambag‘allik darajasini **5,2 foizga** yetkazish rejalashtirilgan. Bu borada joriy yilning **6 oyi** davomida Dastur bo‘yicha jami **705**

ta xizmatlar ko'rsatish hisobiga **2144 nafar** oila a'zolariga amaliy yordamlar ko'rsatildi. Hususan **818 nafar** ishsiz fuqaro ishga joylashtirildi, **83 nafar** fuqarolarga subsidiya asosida asbob uskunalar yetkazib berilib, bandligi ta'minlandi, **149 nafar** fuqarolarga **727,0 mln.so'm** imtiyozli kredit ajratildi, **79 nafar** fuqarolarga "Saxovat va ko'mak jamg'armasi"dan uy-joylarini ta'mirlash uchun hamda sog'ligini tiklash uchun moddiy yordamlar ajratildi, **142 nafar** fuqarolarga davolanish uchun tibbiy xizmat ko'rsatildi, **53 nafar** oila farzandlarini repititor yoki o'quv kurslariga joylashtirildi, **48 nafar** oila farzandlari maktabgacha ta'lim muassasalarga joylashtirildi, **125 nafar** oila a'zolari kasb-xunarga o'qitildi, **51 nafar** fuqarolarning uy-joylari ta'mirlandi hamda **218 nafar** fuqarolarga boshqa yo'nalishlarda (*homiylilik hisobida*) amaliy yordamlar berildi.

Aholi bandligini ta'minlash va ishsizlik darajasini kamaytirish bo'yicha 2025-yilda **30,2 ming** nafar ishsiz fuqarolarni bandligini ta'minlash orqali, ishsizlik darajasini **5,4 foizga** yetkazish rejalashtirilgan. Joriy yilning **yanvar-iyun oylari** yakuni bilan ushbu *investitsiya, qishloq xo'jaligi va qurilish bo'limlari hamda tijorat banklarining ko'maklari* asosida jami **17 685 nafar (111,9%)** aholi bandligi ta'minlandi. Hususan, investitsiya loyihalarni ishga tushirish hisobiga **3,4 mingta (107,5%)**, tijorat banklari tomonidan aholini doimiy ish o'rinlariga ishga joylashtirish va tadbirkorlikka jalb qilish xisobiga **8,4 mingta (116,3%)**, qishloq xo'jaligi sohasida **5,1 mingta (109,9%)** hamda qurilish sohasida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilish hisobiga **804 ta (102,0%)** ish o'rinlari yaratildi.

Shuningdek tumanda **4 ta tajribalar** doirasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan, hususan:

"Sayxunobod" tajribasi bo'yicha **73 ta** mahallada **40 tadan** jami **2 920 ta** mikroloyihani amalga oshirish hamda buning hisobiga **5 840 ta** yangi ish o'rinlari yaratilishi begilab olingan. Joriy yilning **yanvar-iyun oylarida** davomida **1 589 ta** mikroloyihani ishga tushirilib, **3 224 ta** yangi ish o'rinlari yaratildi.

Uychi tajribasi asosida tumanda 2025-yilda banklar tomonidan **72 ta** uchrashuvlar o'tkazilishi belgilangan. Bugungi kun holatiga **35 ta** uchrashuvlar o'tkazilishi natijasida **154 nafar** aholi bandligi ta'minlandi.

"Zarbdor" tajriba asosida drayver loyihalarini amalga oshirish bo'yicha joriy yilda umumiy qiymati **111,6 mlrd.so'mlik** (*shundan 96,4 mlrd.so'm tashabbuskorlar mablag'lari, 2,5 mlrd.so'm tijorat banki kreditlari, 1 mln. dollar xorijiy investitsiya va kreditlari, 2,8 mlrd.so'm byudjet mablag'lari*) jami **5 ta** (*1 ta sanoat, 4 ta xizmat ko'rsatish*) loyihalar shakllantirilgan. Ushbu loyihalarni birinchi bosqichida **2 ta** loyihalar tanlab olinib, ularning infratuzilmasi uchun ajratiladigan **2,4 mlrd.so'm** mablag'lar bo'yicha ob'ektlarning manzilli dasturi shakllantirildi.

G'ijduvon tajribasi asosida tumanda joriy yilda **9 ta** mahallada loyihalar amalga oshirilishi belgilangan. Mazkur mahallalarda **205 ta** ish o'rinlar yaratuvchi **9 ta** loyiha shakllantirilgan. Hozirda ushbu shakllantirilgan loyihalardan **5 tasi** (Avto Car chevrolet MChJ, "Log'on nur Saxovat" MChJ, YaTT Sotvoldieva Dilafo'za, YaTT Abdullaeva Shaxlo, "ZAYNUR DIYoR FAYZ" ishlab chiqarish kooperativi) ishga tushirilib, **140 ta yangi** ish o'rni yaratildi. Qolgan loyihalarni ishga tushirish bo'yicha loyiha tashabbuskorlari bilan birma-bir joyiga chiqqan holda uchrashib, tegishli ko'rsatmalar berib borilmoqda. Bundan tashqari **Tadbirkorlik dasturlari** doirasida ajratiladigan kerditlar bo'yicha 2025-yilda tadbirkorlik dasturlari doirasida **74,0 mlrd.so'm** kredit mablag'lari ajratish rejalashtirilgan. Joriy yilning yanvar-iyun oylarida ushbu dasturlar doirasida **1807 ta** talabgorlarga **54,5 mlrd. so'm** kredit mablag'lari ajratildi. **Jumladan:**

-***"Kichik biznesni uzlyuksiz qo'llab-quvvatlash"*** dasturi bo'yicha **118 ta** talabgorlarga **11,3 mlrd. so'm**;

-***"Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi"*** doirasida **570 ta** talabgorlarga **8,2 mlrd.so'm**;

-***"Biznesga birinchi qadam"*** kredit doirasida **415 ta** talabgorlarga **8,3 mlrd.so'm**;

-***"Mahalla"*** loyiha dasturi doirasida **704 ta** talabgorlarga **26,8 mlrd.** kredit mablag'lari ajratildi.

Shuningdek **835 nafar** fuqarolar (*shundan 495 nafari ayollar, 208 nafari yoshlar*) mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb xunarga o'qitish ishlari amalga oshirildi hamda joriy yilning **6 oyi** davomida **8 650 nafardan** ortiq fuqarolarni o'zini-o'zi band qilishga erishildi.

Investitsiyalarni o'zlashtirish.

2025-yilda umumiy qiymati **207,3 mln**dollar bo'lgan **8 ta** loyihalar doirasida **127,0 mln.**dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va xorijiy kreditlar o'zlashtirilishi belgilangan.

Shundan, 1-yarim yillikda **57.3 mln** dollar **xorijiy investitsiyalar** o'zlashtirishi belgilangan bo'lib, amalda **60.9 mln** dollar investitsiyalar o'zlashtirilib reja ko'rsatkichi **106.2 foizga** bajarildi.

Shuningdek, joriy yilda hududiy investitsiya dasturlari doirasida qiymati **61,5 mln** dollar bo'lgan **32 ta** loyihalarni amalga oshirish hisobiga **4 536 ta** ish o'rinlarini yaratish belgilangan bo'lib, 1-yarim yillik yakuni bilan qiymati **5.5 mln**dollar bo'lgan **21 ta** loyihalarni ishga tushirildi va **4411 ta** yangi ish o'rinlarini yaratildi.

Misol uchun: *Farg'ona tumanida Tailand bilan "Bahodir log'on teksil" MChJ QK tomonidan qiymati 20 mln doll. bo'lgan turizm kompleksini tashkil etish loyihasi doirasida 5 mln dollar.*

Farg'ona tumanida Eron bilan "Chekshura tarovati invest" MChJ tomonidan qiymati 5 mln doll. bo'lgan temir beton va asfalt ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasi doirasida 3.4 mln dollar.

"Bahodir log'on teksil" MChJ QK tomonidan Un ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasi doirasida 9 mln dollar o'zlashtirildi.

Eksport ko'rsatkichlarini bajarish bo'yicha.

2025-yilda **43.2 mln.**dollar shundan, **qishloq xo'jaligi** mahsuloti uchun **24.8 mln** dollar, **sanoat** mahsulotlari mahsuloti uchun **18.4 mln** dollar prognoz belgilangan.

Yanvar-iyun oylari uchun **12.1 mln** dollar shundan, **qishloq xo'jaligi** mahsuloti uchun **8.7 mln** dollar, **sanoat** mahsuloti uchun **3.4 mln** dollar prognoz ko'rsatkichlari belgilangan.

O'tgan 6 oyda **amalda** jami **9.7 mln** dollar eksport amalga oshirildi. Shundan, **qishloq xo'jaligi** mahsuloti **4.5 mln** dollar, **sanoat** mahsuloti **5.2 mln** dollarni tashkil etdi.

Misol uchun: "ROYaL THAY BRANCH" MChJ tomonidan **1.3 million** dollarlik ip kalava mahsulotlari eksporti amalga oshirildi

"Baht Textile Andijon" MChJ tomonidan **2.6 million** dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirildi

"Yusufbek Building" MChJ tomonidan **1.2 million** dollarlik qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti amalga oshirildi

Tumandagi 7 ta og'ir MFYlarda kommunikatsiya tizimini yaxshilash bo'yicha

Davlatimiz Rahbarining PQ-330-sonli qarori bilan ushbu mahallalarda tomorqa yerlarini sug'orishni yaxshilash, elektr energiyasi barqaror yetkazib berilishini ta'minlash, internet sifatini oshirish, ichki yo'llarni ta'mirlash maqsadlari uchun jami **21,0 mlrd.so'm** mablag' ajratilmoqda. Jumladan,

1. Tomorqa yerlarini sug'orish tizimi yaxshilash bo'yicha 7 ta mahallalarda manzilliy ro'yhat shakllantirilgan hamda viloyat xalq deputatlari Kengashlari qarori bilan tasdiqlangan.

Ushbu qarorga asosan-**10 ta** quduq qazish (4,850 mlrd.so'm), mablag'lar ajratilgan.

Bugungi kunda, Beruniy **10 ta** ob'ektlarga loyiha tashkiloti tomonidan quduq qazish ishlari yakunlanib xozirda foydalanishga topshirish jarayonida.

2. Elektr ta'minoti bo'yicha – 7 ta ob'ektda 5,233 mlrd. so'm mablag' sarflanishi hisob-kitob qilingan. Jumladan,

11 ta transformator o'rnatish (1,320 mlrd.so'm), 19 km elektr tarmog'i tortish (2,960 mlrd.so'm), 561 ta tayanchlarni almashtirish (953 mln.so'm) orqali 7170 ta xonadonni elektr ta'minoti yaxshilanadi.

Bugungi kunda Beruniy va Mashal maxalla fuqarolar yig'itniga 911 mln so'm mablag' ajratilib xozirda 201 dona temir beton tayanchlari o'rnatilib, 5,6 km elektr uzatish tarmog'i va 2 dona transformator punkti o'rnatildi.

Qolgan 5 ta MFY xududlarida 426 dona temir-beton tayanchlar va 7 dona transformator punkti o'rnatildi xamda 3,3 km masofada elektr uzatish tarmog'i tortildi.(qurilish ishlari davom etmoqda).

Buning natijasida 7170 ta honadonlarning elektr ta'minoti yaxshilanadi va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga zamin yaratiladi.

3. Ichki yo'llar bo'yicha – 7 ta MFYda 23,0 km yo'llarni asfaltlashtirish (10,917 mlrd.so'm) hisobiga 819 ta xonadonni yo'llardan foydalanish sharoiti yaxshilanadi.

Bugungi kunda ushbu 7 ta MFYni ichki yo'llarini moliyalashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

4. Internet bo'yicha – 7170 ta xonadonni optik tolali internet tarmog'i tortish bo'yicha viloyat (Farg'ona telekom hisobidan qilinishi belgilangan);

Bugungi kunda Farg'ona telekom hisobidan ushbu 7 ta MFY larga optik tolali internet tarmog'i to'liq tortildi.

Ko'p kvartirali uy-joylar qurilishini tashkil qilish yuzasidan tuman hududida 2025-yil yakuniga qadar 20 ta, 5 va 7 qavatli, 1058 xonadonli ko'p qavatli uy-joylar qurib bitkazilishi rejalashtirilgan.

2025-yil 1-choragiga 2 ta 5 qavatli 50 xonadonli , 1ta 7 qavatli 56 xonadonli uy-joylar hozirgi kunda ichki ichki pardoqlash ishlari olib borilmoqda va 17 ta 7 qavatli 952 xonadonli ko'p qavatli uy-joylarning qurilish ishlari yakunlanib foydalanishga qabul qilindi.

Tuman va boshqa aholi punktlari ko'chalari holatini yaxshilash bo'yicha:

2025-yil yakuniga qadar tuman hududidagi 19,0 km ichki xo'jalik yo'llarini ta'mirlash rejalashtirilgan (2-chorak rejasi 6,5 km). Hozirgi kunda qurilish ta'mirlash ishlari amalga oshirilishi rejalashtirilgan ko'chalarning loyihalash ishlari yakunlanib tamirlash ishlari olib borilmokda.

Xonadonlarni ichimlik suvi tarmog'iga ulash masalalarida 2025-yil yakuniga qadar tuman hududidagi 1800 ta aholi xonadonlarini ichimlik suvi tarmog'iga ulash rejalashtirilgan (2-chorak rejasi 540 ta). Hozirgi kunda 525 ta aholi xonadonlari ichimlik suvi tarmog'iga ulanib,

belgilangan choraklik rejani 98 foizga bajarilishiga erishildi hamda qolgan aholi xonadonlarini ichimlik suvi tarmog'iga ulash ishlari amalga oshirilmoqda.

Farg'ona tumanida jami yildi boshiga 27 501 ta aholi xonadonlari hamda 338 ta ulgurji ichimlik suvi iste'molchilari mavjud. 2025-yil 2-chorak yakuni bo'yicha aholi xonadonlari iste'molchilar soni 28 300 tani tashkil etadi tuman aholisini markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasini 82.7 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Hozirgi kunda tuman aholisining markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi 82.3 foizni tashkil etmoqda. Quriladigan, rekonstruksiya va modernizatsiya qilinadigan elektr tarmoqlari uzunligi 2025-yil yakuniga qadar tumanda 23,5 km elektr tarmog'i tortish rejalashtirilgan. Hozirgi kunda loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilmoqda.

2025-yil yakuniga qadar tumanda 17 ta elektr transformatorlar o'rnatish rejalashtirilgan (1-chorak rejasi 2 ta). Hozirgi kunda tuman hududida 2 ta transformatorlar va 3,1 km masofada elektr uzatish tarmog'i tortilib, 1-chorak uchun belgilangan rejani 100 foizga bajarilishiga erishildi. Qolgan transformatorlarni o'rnatish bo'yicha loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilmoqda.

Farg'ona tumani Damko'l MFY Damko'l ko'chasiga 1 dona GRP yangidan qurish hamda Konchilar MFY Maftunkor ko'chasida joylashgan 1 dona GRPni mukammal ta'mirlash ishlari amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, xavo xaroratining keskin pastlashi xamda ushbu ishlarni bajarish uchun materiallar to'lik bo'lmaganligi sababli 2025 yil 2 chorak davomida amalga oshirilishi rejalashtirildi.

Quriladigan va ta'mirlanadigan gaz taqsimlash punktlari bo'yicha:

Farg'ona tumani O'zbekiston MFY Orzu ko'chasiga 1 dona GRP yangidan qurish ishlari amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, Hozirgi kunda O'zbekiston MFY Orzu ko'chasiga 1 dona RDNK -100 markali bo'lgan yukori bosimli GTP (gaz taqsimlash punkt) o'rnatildi. Soy bo'yi MFY Farg'ona ko'chasiga 5 dona RDNK -50 markali yukori bosimli bo'lgan GRP o'rnatildi.

Aholiga yetkazib beriladigan suyultirilgan gaz hajmi bo'yicha:

Tumanda 21505 ta suyultirilgan gaz bilan ta'minlangan aholi xonadonlari mavjud bo'lib 2025-yil yakuniga qadar jami 3429 tonna suyultirilgan gaz yetkazib berish rejashtirilgan (1-chorak rejasi 854.4 tonna). Hozirgi kunda tuman aholisini belgilangan reja grafikka asosan suyultirilgan gaz balonlari bilan ta'minlash ishlari amalga oshirilmoqda. 2025-yil boshidan buyon tuman aholisiga 854.4 tonna suyultirilgan gaz yetkazib berilib, 1-chorak uchun belgilangan rejani 100 % ga bajarilishiga erishildi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni bandligini ta'minlash orqali ularni ijtimoiylashtirish bo'yicha: 2025-yil uchun 389 nafar nogironlarni bandiligini ta'minlash

orqali ijtimoiylashtirish rejalashtirilgan. Bugungi kun holatiga 370 nafar nogiron shaxslarni bandligini ta'minlash orqali ijtimoiylashtirishga erishildi.

Tibbiyot muassasalarini zarur asbob-uskunalar bilan jihozlash bo'yicha: 2025-yilda tibbiyot muassasalarini 8,3 mlrd.so'mlik tibbiy asbob-uskunalar bilan ta'minlash rejalashtirilgan (2-chorak rejasi 2,4 mlrd.so'm). Bugungi holatiga 2,4 mlrd.so'mlik tibbiy asbob-anjomlar (Raqamli rengen apparat, fizioterapiya apparatlari) bilan ta'minlandi.

Maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi:

2025-yil davomida tumanda maktabgacha ta'lim yoshidagi tarbiyalanuvchilar qamrovini 86,5 foizga yetkazish rejalashtirilgan (2-chorak rejasi 85,7 foiz). aprel-iyun oylarida reja 86,0 foizga bajarildi. Joriy yilning aprel-iyun oylari holatiga 130 nafar 3-7 yoshli bolalar qamrab olindi.

Ayollar daftari bo'yicha:

“Sayxunobod tajribasi” asosida kasb-hunarga o'qish istagini bildirgan 1292 nafar xotin-qizlardan 1109 nafar xotin-qizlar turli yo'nalishlarda jumladan:

-395 nafarini xotin-qizlar tadbirkorlik markazlarida;

-495 nafarini kasb-hunarga o'qitish markazlarida;

-51 nafarini “Hunarmand uyushmasi” tomonidan kasb-hunarga o'qitish;

-198 nafarini Lider tadbirkorlar tomonidan o'qitiladigan qisqa o'quv kurslarida o'qitilinishi ta'minlanib, o'z yo'nalishi bo'yicha bandligi ta'minlanib daromad topishga ko'maklashildi.

Qaramog'ida nogiron farzand tarbiyalayotgan ehtiyojmand xotin-qizlarga ko'maklashish bo'yicha ehtiyojmand 187 nafar ehtiyojmand xotin-qizlarni 187 nafariga bir martalik moddiy yordam ko'rsatildi. Jumladan, 18 nafariga moddiy yordam, 11 nafariga davolanishga tibbiy yordam, 88 nafariga oziq-ovqat mahsulotlari hamda 54nafariga huquqiy hamda psixologik yordamlar berildi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Farg'ona tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-dekabrda “Farg'ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-440-sonli qarori ijrosi yuzasidan tumanda 2025-yilning yanvar-iyun oylarida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida tuman hokimi X.Inomovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Farg‘ona tuman hokimining o‘rinbosarlari (O.Abduraximov, I.Toshpo‘latov, M.Qodirxonov, *lavozimi bo‘yicha*, A.Axrоров)lar, bo‘lim, tashkilot va muassasalar rahbarlariga:

tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida “mahallalar yettiligi” faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yilishini ta‘minlash va nazoratni kuchaytirish;

“mahalla yettiligi” vakillari ishtirokida aholi bilan doimiy muloqotlarni tashkil etib borish;

tuman hududida “Sayxunobod”, “Uychi”, “G‘ijduvon”, “Zarbdor” tajribalari doirasida tegishli ishlarni amalga oshirilishini jadallashtirish va samaradorligini oshirish, aholi tomonidan tomorqa va uy xo‘jaliklardagi imkoniyatlarni to‘liq ishga solish orqali daromadlarini oshirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni o‘tkazilishini ta‘minlash;

aholi muammolarini samarali hal etish, ma‘naviy muhitni saqlash, ma‘naviy- ma‘rifiy chora-tadbirlarni amalga oshirish;

hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, soliq inspektori va ijtimoiy xodimning o‘z vazifalarini bajarishda hamkorligini ta‘minlash;

aholini moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ishlarini tashkil etish, kambag‘al oilalarga ajratilayotgan budget va boshqa mablag‘larni maqsadli va manzilli yo‘naltirish va bu borada nazoratni kuchaytirish;

ishsiz fuqarolarning bandligini ta‘minlash, kredit ajratish masalalarida fuqarolarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, mahallalarda bandligi ta‘minlanmagan yoshlar va xotin-qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka jalb etish orqali bandligini ta‘minlash choralari ko‘rish;

“mahalla yettiligi” bilan birgalikda “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” ro‘yxatida turgan fuqarolarning muammolarini o‘z vaqtida hal etish choralari ko‘rish;

qarovsiz, nazoratsiz qolgan voyaga yetmaganlarning ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta‘minlash;

sog‘lom ijtimoiy-ma‘naviy muhitni saqlash, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an‘analarni targ‘ib qilish, ma‘naviy-ma‘rifiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini yanada mustahkamlash maqsadida mas‘ullar bilan birgalikda ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar va sport musobaqalarini o‘tkazilishini ta‘minlash;

aholini tomorqadan unumli foydalanish, oilaviy tadbirkorlik, kichik sanoat va xizmatlarni yo‘lga qo‘yish orqali, aholini daromadli qilish choralarini ko‘rishga;

fuqarolardan kelib tushgan murojaatlarni o‘z vaqtida o‘rganib chiqish, aniqlangan muammolarni qonuniy hal etish choralarini ko‘rish;

Bajarilgan ishlar bo‘yicha har oyining 1 sanasiga qadar Xalq deputatlari tuman Kengashiga tegishli hisobotni kiritilishi ta’minlansin.

3. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



INOMOV XAMIDULLO
TADJIYEVICH